



Vebsayt: <https://involta.uz/>

BOJXONA SOHASINI RAQAMLASHTIRISHDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATORLAR INSTITUTINING AHAMIYATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Olimjonova Gulida olimjon qizi

*Toshkent davlat Yuridik universiteti Davlat boshqaruv huquqi fakulteti
magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Vakolatli iqtisodiy operatorlik instituti, uning xalqaro savdodagi ahamiyati o’rganib chiqiladi. Shuningdek, ushbu institutning bojxona sohasini raqamlashtirishdagi o’rni va mavjud muammolar ham ko’rib chiqiladi. Maqolada ilmiy tadqiqotning mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy va statsitik metodlaridan foydalanilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается институт уполномоченных экономических операторов и его роль в международной торговле. Также будет рассмотрена роль данного института в цифровизации таможенной сферы и существующие проблемы. В статье использованы логический, сравнительно-правовой и статистический методы научного исследования.

Annotation. This article examines the institution of authorized economic

operators and its role in international trade. The role of this institution in the digitalization of the customs sphere and the existing problems will also be considered. This article examines the institution of authorized economic operators and its role in international trade. The role of this institution in the digitalization of the customs sphere and the existing problems will also be considered. The article has used logical, comparative-legal and statistical methods of scientific research.

Kalit so'zlar. Vakolatli iqtisodiy operator, xavfsiz savdo ta'minot zanjiri, xavfsizlik standartlari, avtorasmiylashtiruv tizimi, xavfni boshqarish, bojxona auditi.

Ключевые слова. Уполномоченный экономический оператор, безопасная торговая цепочка поставок, безопасные стандарты, система автоматического таможенного оформления, управление рисками, таможенный аудит.

Keywords. Authorized Economic Operator, secure trade supply chain, safe standards, automatic customs clearance system, risk management, customs audit.

Vakolatli iqtisodiy operatorlik instituti. Jahon Bojxona Tashkiloti (keyingi o'rinlarda JBT) uzoq vaqtdan beri xalqaro logistika oqimining xavfsizligini, ya'ni ta'minot zanjiri xavfsizligini ishlab chiqaruvchilardan to yakuniy iste'molchilarga qadar ta'milashga harakat qilmoqda.

Shu maqsadda, 1999-yilda JBT Kengashi qayta ko'rib chiqilgan "Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi Kioto konvensiyasini qabul qildi¹. Aynan shu konvensiya bilan operatorlik instituti faoliyatining konseptual asoslari belgilab qo'yilgan deyish mumkin. [1]

Ushbu konvensiyada vakolatli iqtisodiy operator tushunchasi bo'lmasa-da, biroq konvensiyaning 3.32 o'tish standartida "vakolatli shaxslar" tushunchasiga ishora qilinadi va "E" maxsus ilovasida "vakolatli yuk oluvchi" va "vakolatli yuk jo'natuvchi" tushunchalariga aniq ta'rifi beriladi: vakolatli yuk oluvchi - bojxona organlari tomonidan tovarlarni bevosita o'z manzilida ushbu tovarlarni belgilangan

¹ Kioto konvensiyasi biinchi marta 1974-yilda qabul qilingan.

bojxona organiga taqdim etmagan holda qabul qilishga vakolat berilgan shaxs; vakolatli jo'natuvchi - bojxona organlari tomonidan tovarlarni jo'natuvchi bojxona organiga ko'rsatmagan holda to'g'ridan-to'g'ri o'z obyektlaridan jo'natish huquqiga ega bo'lgan shaxs.

Shu bilan birga, bojxona organlari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilishi tekshirilgandan keyingina vakolatli yuk jo'natuvchi va vakolatli yuk oluvchi maqomi berilishi ta'kidlandi.

Vakolatli iqtisodiy operator tushunchasi esa birinchi marta AQShda 2001-yilning 11-sentabr kuni AQShda sodir bo'lgan halokatli teraktlar natijasida yangi logistika xavfsizligi tizimi va savdo xavfsizligi qoidalarini joriy etish maqsadida foydalanila boshlangan.

2005-yil iyun oyida esa JBT Kengashi xalqaro terrorizmni oldini olish, global savdo xavfsizligini ta'minlash va butun dunyo bo'ylab savdo jarayonlarini osonlashtirishga yordam beradigan Global savdoni ta'minlash va osonlashtirish uchun Xavfsizlik standartlari doirasini (*SAFE Framework*) qabul qildi.[2]

Ushbu xalqaro hujjatning asosiy konsepsiyasi vakolatli iqtisodiy operatorlar instituti asoslari va tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat deyish mumkin. Xususan, unda mavjud beshta asosiy elementning to'rtinchisi xavfsizlik standartlar doirasida bojxona uchun minimal xalqaro ta'minot zanjiri xavfsizligi standartlari va eng yaxshi amaliyotlarga mos keladigan kompaniyalarga imtiyozlar berishni nazarda tutadi.

Xavfsizlik standartlarining birinchi ilovasida vakolatli iqtisodiy operatorga umumiy ta'rif beriladi: Milliy bojxona ma'muriyati tomonidan yoki uning nomidan JBT xavfsizlik standartlari yoki unga tenglashtirilgan hujjatga muvofiq ma'qullangan har qanday funksiyada tovarlarning xalqaro harakatida ishtirok etuvchi tomon.[3]

Shu o'rinda milliy qonunchiligimizdagi operator maqomiga berilgan ta'rifga to'xtalsak, unga ko'ra operator: Nizom² talablariga javob beradigan yuridik

² Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi "Vakolatli iqtisodiy operatorlar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 500-son qarori nazarda tutilgan.

shaxslarga bojxona operatsiyalarini amalga oshirishda soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillaridan foydalanish bo'yicha beriladigan maqom ekanligi belgilangan.

Xavfsizlik standartlariga muvofiq operator maqomini global ta'minot zanjirining asosiy bosqichlarida faol ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar va korxonalar (*importchilar, eksportchilar, ishlab chiqaruvchilar, distribyuterlar va tashuvchilar, hamda omborchilar, terminal operatorlari, logistika operatorlari, shuningdek, bojxona brokerlari*) olishlari mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Biroq, xorijiy mamalaktlar tajribasida boshqa turdagi subyektlarga ham operator maqomi berilganligini ko'rishimiz mumkin:

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi davlatlarida operator maqomi uch turdagi (*kategoriya*) sertifikatlarga asosan berilib, ushbu maqomni eksportyor, importyor, bojxona tashuvchilari, bojxona vakillari, ekspeditorlar, vaqtincha saqlash ombor egalari kabi yuridik shaxslar olishlari mumkin.[4]

Koreya Respublikasida vakolatli iqtisodiy operator maqomi eksportyor, importyor, bojxona brokerlari, ekspeditorlar, transport kompaniyalari (bojxona tashuvchilari), daryo/avia tashuvchilari, ombor operatorlariga (bojxona zonasi operatorlari, port terminallari) berilishi belgilangan.[5]

Yevropa ittifoqida operator maqomi uch turdagi (*kategoriya*) sertifikatlarga asosan berilib, ushbu maqomni ishlab chiqaruvchilar, eksportyor, importyor, vaqtincha saqlash ombori egalari, bojxona vakillari (*agentlar*), ekspeditorlar va boshqa tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari, jumladan jismoniy shaxslar ham (*misol uchun, terminal operatorlari yoki logistik kompaniyalari*) olish imkoniyatiga ega.[6]

Xitoy Xalq Respublikasida eksportchilar, ishlab chiqaruvchilar, bojxona brokerlari, ekspeditorlar, yuk tashish agentliklari, ombor egalari, avtomobil yo'llari tashuvchilar, dengizda tashuvchilar va havo yo'llari orqali tashuvchilar qatorida alohida boj to'lovchilar turi ham ajratilgan bo'lib, ular ikki turdagi operator sertifikati asosida faoliyat yuritishlari mumkin.[7]

Yuqorida qayd etilgan konvensiya va standartlardan tashqari Jahon Savdo

Tashkiloti “Savdo qulayliklari bitmi”ning (Trade facilitation agreement) 7.7-moddasida (Vakolatli operatorlar uchun savdoni osonlashtirish choralari) bir qator me’zonlarga javob beradigan “Vakolatli iqtisodiy operatorlar” bojxona qoidalariga rioya qilish bo'yicha turli dastur va sxemalarni to'liq amalga oshirish yo'lidagi qadam sifatida qo'llab-quvvatlanadi.[8]

Vakolatli iqtisodiy operatorlik institutining xalqaro savdodagi ahamiyati.

Operatorlik institutini joriy etish nafaqat ichki savdo va bojxona bilan bog'liq protseduralarni soddalashtirish va tezlashtirish balki, submintaqaviy, mintaqaviy va (kelajakda) global miqyosda ham xavfsizlikni ta'milagan holda ularni tatbiq etishni nazarda tutadi.

Buni amalga oshirish uchun esa JBT a'zo davlatlarga va iqtisodiy ittifoqlarga mavjud milliy operatorlarni o'zaro tan olish mexanizmini joriy etishni tavsiya etadi.

O'zaro tan olish - bu bir bojxona ma'muriyati boshqa bojxona ma'muriyatining yoki tegishli ravishda vakolat berilgan operatorning xatti-harakati yoki qarorini tan oladigan global tushunchadir. [9]

Xavfsizlik standartlarining VII bobida o'zaro tan olishning asosiy shartlari va uni tatbiq etish uchun tavsiyalar berilgan. Unga ko'ra, tomonlarning vakolatli iqtisodiy operatorlik dasturlari xavfsizlik standartlari doirasiga mos kelishi va bojxona ma'muriyatlari va VIO harakatlarining oqilona ta'riflarini o'z ichiga olgan umumiy standartlarning kelishilgan to'plamini ishlab chiqishlari kabi bir qancha shartlar ishlab chiqilgan.

Albatta, bu kabi shartlarni ishlab chiqish uchun yetarli asoslar mavjud. Zero, tomonlar o'z qonun hujjatlarida operatorlarga qanday maxsus sodalashtirishlarni berishni nazarda tutgan bo'lsa, huddi shunday sodalashtirishlarni kelishuvchi tomonga ham taqdim etishi, shuningdek, berilishi ko'zda tutilgan sodalashtirishlarni o'zaro tan olish shartnomalarida alohida kelishishlari ham mumkin.

Bu kabi maxsus sodalashtirishlar (yengiliklar) operatorlarni tanlab olish me'zonlari va turiga mos ravishda har bir mamalkata har xil bo'lishi mumkin.

Masalan, Yevropa Ittifoqi (keying o'rinlarda YI) mamlakatlarida uch turdagi operator maqomi bo'lib, ular bojxona soddalashtirishlari uchun vakolatli operator (AEOC), xafsizlik bo'yicha operator (AEOS) va har ikkala turni o'zida mujassam qiluvchi operatoridir.

Ularga berilgan soddalashtirishlarni ushbu jadvalda ko'rishimiz mumkin: [6]

Imtiyoz va soddalashtirishlar	AEOC	AEOS
Bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq operatsiyalarda ustuvorlik	X	
Jismoniy va hujjatga asoslangan tekshiruvlarning kamligi -xavsizlikka oid -bojxonaga oid	X	X
Jismoniy nazoartni qo'llashda oldindan xabar berish (xavfsizlik bilan bog'liq)		X
Bojxona nazoratini qo'llashda oldindan xabar berish (bojxona qonunchiligiga ko'ra)	X	
Nazorat obyektini sifatida tanlangan bo'lsa ustuvorlik berish	X	X
Bojxona nazorati uchun ma'lum joyni ixtiyoriy tanlash imkoniyati	X	X
Bilvosita foydali tomonlarning mavjudligi (<i>biznes hamkorlari tomonidan ishonchli deb topilishi, bojxona va boshqa davlat organlari tomonidan tan olinishi, bojxona xizmatlarining ustuvor ko'rsatilishi, kam tekshiruvlar va kam xarajat</i>)	X	X
Uchinchi tomon davlatlari bilan o'zaro tan olish		X

Yida mavjud operatorlik institutining ahamiyatli jihati unga a'zo mamalatlarning operatorlariga o'zaro yuqoridagi jadvalda keltirilgan imtiyoz va soddalashtirishlar amal qiladi. Bu esa tabiiyki, YI mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdoni yanada osonlashtiradi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, YI doirasida yagona tartib va qoidalarning bo'lishi o'zaro tan olish bitimlarini YI bilan tuzgan mamlakat uchun

Ittifoqda faoliyat yuritayotgan barcha operatorlarni bir vaqtning o'zida tan olish imkonini beradi.

Bugungi kunda YI jami 5 ta mamlakat bilan: Shveysariya, Norvegiya (2009-yil), Yaponiya (2011-yil), AQSh (2012-yil) va Xitoy (2015-yil) bilan ikki tomonlama o'zaro tan olish bitimlarini imzolagan.[10]

Bunday ikki tomonlama o'zaro tan olish bitimlarini imzolash va ikki tomonlama savdo va bojxona sohalarida imtiyozlar berish dunyoning ko'pgina mamlakatlari, xususan, Koreya, Yaponiya, AQSH, Germaniya, Kanada va qo'shni Rossiya, Belorussiya xavsiz savdoni yo'lga qo'yishda samarali qo'llab kelmoqdalar.

Jumladan bugungi kunga kelib, 87 ta ikki tomonlama va 4 ta ko'p tomonlama/mintaqaviy o'zaro tan olish bitimlari tuzildi va 78 ta bitimlar yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda. [10]

Operatorlarning o'zaro tan olinishi shubhasiz, savdoni tezlashtirish va ortiqcha tekshiruvlarsiz amalga oshirilishiga sabab bo'ladi, bir vaqtning o'zida xorijiy mamlakatlar tajribasida ularning davlat idoralari tomonidan tan olinishi ham ushbu jarayonga ijobiy ta'sir etishini ko'rishimiz mumkin.

Shulardan biri Xitoy Xalq Respublikasining AJI (authorized economic operators join incentive) davlat organlari bilan qo'shma dasturidir.

AJI dasturi 40 ga yaqin davlat idoralarini o'z ichiga olgan (bojxona, karantin, fuqaro aviatsiyasi va port ma'muriyati kabi chegara idoralari hamda Milliy taraqqiyot va islohotlar komissiyasi (NDRC) va Xalqaro savdoni rivojlantirish bo'yicha kengash (CCPIT) kabi chegaradan tashqari idoralar, shuningdek soliq, moliya, atrof-muhitni muhofaza qilish, bozor nazorati va bank nazorati bo'yicha mas'ul organlar).

Dasturning maqsadi 6 ta yo'nalishda operatorlarga 49 ta turdagi imtiyoz va yengilliklarni hamkorlikda taqdim etishdan iborat.

Hozirgi vaqtda Xitoyda 3203 ta operator mavjud bo'lib, ular milliy import va eksport hajmining taxminan 33,1% ni tashkil qiladi. Ushbu dastur orqali barcha hokimiyat organlari ta'minot zanjiri xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini

ta'minlash uchun operatorlarni dinamik nazorat va monitoringini olib boradi.[11]

Bizningcha, operatorlarni mamlakat ichida vakolatli organlar tomonidan va davlatlararo o'zaro tan olinishi xavfsiz savdo tizimini yaratishda va bojxona protseduralarini soddalashtirishda asosiy omillardan biridir.

Vakolatli iqtisodiy operatorlik institutining O'zbekiston bojxona sohasini raqamlashtirishdagi o'ri. ARC Advisory Groupning raqamlashtirish bo'yicha tadqiqodchisi Mark Sen Gupta raqamlash (digitization) va raqamlashtirish (digitalization) tushunchalariga ilmiy izoh beradi: raqamlash atamasi jismoniy obyektlar yoki atributlarning raqamli tasvirini yaratishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamlash raqamli bo'lmagan narsani raqamli tasvir yoki artefaktga aylantirishdir.

Umumiy qilib aytganda, raqamlashtirish raqamli texnologiyalardan foydalangan holda axborotni uzatish va qabul qilish jarayoni deyish mumkin.

Bojxona sohasini raqamlashtirishga bo'lgan sayi-harakatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-avgustdagi "Tovarlarni bojxonada elektron shaklda deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 376-son qarori bilan boshlangan bo'lsa-da, "raqamli bojxona" tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi PF-6005-sonli "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida ilk bor qo'llanilgan.

Ushbu Farmon bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 30-bandida xavf darajasi past bo'lgan tovarlarni avtomatik ravishda bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazuvchi tizimni amaliyotga joriy etish topshirig'i berilgan.

Shu maqsadda, Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan bojxona yuk deklaratsiyalarini (*keying o'rinlarda BYuD*) inson omili ishtirokisiz avtomatik tarzda rasmiylashtiruvdan o'tkazuvchi "Avtomashtirilgan tarzda chiqarib yuborish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi ("Avtorasmiylashtiruv" tizimi) ishlab chiqildi. Hozirgi kunga kelib, "eksport" bojxona rejimida avtomatik tarzda rasmiylashtirilgan

BYuDlar, umumiy rasmiylashtirilgan xavf darajasi past bo'lgan tovarlarning 22,7 % ini tashkil etmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "Vakolatli iqtisodiy operatorlar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 500-son qarorning 1-bob, 4-bandida operator maqomini olgan (bojxona organi tomonidan yuritiladigan operator reestriga kiritilgan) har bir tadbirkorlik subyekti xavf darajasi past bo'lgan toifaga kiritilishi belgilangan.

2022-yil 11-fevral holatiga ko'ra operatorlar soni 37 ta bo'lib, ular tomonidan 2021-yil davomida rasmiylashtirilgan BYuDlarning 87,25% "yashil yo'lak" orqali rasmiylashtirilgan. Shundan "Avtorasmiylashtiruv" tizimi orqali eksport va import rejimlarida rasmiylashtirilgan BYuDlar soni 2021-yil davomida rasmiylashtirilgan jami BYuDlarning 5,79%ni tashkil etgan.[12]

Yuqorida keltirilgan sonlardan ko'rinib turibdiki, operatorlar tomonidan rasmiylashtirilgan BYuDlarning aksariyat qismi avtomatlashtirilgan holda inson omilisiz rasmiylashtirilmoqda. Kelgusida esa, operatorlik instituti rivojlanishi bilan ishonchli vakil sifatida ularga tegishli barcha BYuDlar avtomatik tarzda "Avtorasmiylashtiruv" tizimi orqali rasmiylashtirish yo'lga qo'yiladi.

O'zbekistonda operatorlik institutning rivojlanishidagi ayrim muommolar. Vakolatli iqtisodiy operatorlar sonining kamligi. Bugungi kunda ularning soni 37 tani tashkil etadi. Solishtirish uchun: AQSHda 11 598 ta, Xitoyda 3203 ta, Koreyada 840 ta, Turkiyada 524 ta va Rossiyada 150 ta.[10] Bu holatning sababini bir necha omillarda ko'rish mumkin. Xususan, mamlakatda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining ushbu instituti haqida kam ma'lumot bilishi yoki bilmasligi.

Berilgan soddalashtirishlarning tadbirkorlik turlariga mos ravishda, alohida turlar bo'yicha belgilanmaganligi. Ya'ni "Vakolatli iqtisodiy operatorlar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 500-son qarorining 6-bobida maxsus soddalashtirishlar tadbirkorlik yo'nalishi: *bojxona brokerlari, bojxona ombori egalari, logistik tashkilotlar va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga mos*

ravishda ajratilmagan bo'lib, umumiy I turdagi, I va II turdagi, II turdagi va III turdagi guvohnama egalariga nisbatan berilishi ko'zda tutilgan.

“Vakolatli iqtisodiy operatorlar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 500-son qaror bilan belgilangan operatorlarni tanlab olish me'zonlari, qo'yilgan talab va shartlarning JBTning “Xavfsizlik standartlari”ga nomuvofiqligi. Bu kelgusida mamlakatlar bilan o'zaro tan olish bitimlarini tuzishda muammo keltirib chiqarishi mumkin.

Operatorlarni nazorat qilish mexanizmining rivojlanmaganligi. Import-eksport yo'nalishida amalaga oshirilayotgan rasmiylashtiruv jarayonini to'liq avtomatlashtirish - bojxona sohasini raqamlashtirishning muhim istiqbolli yo'nalishi va uning asosiy subyekti – shubhasiz, operatorlardir. Biroq, ularni nazorat qilishning samarali usuli bo'lgan o'z-o'zini “audit” qilish yoki ularga nisbatan bojxona auditini o'tkazish majburiyati bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarda hech qanday norma belgilanmagan.

Shuningdek, ularga operatorlik maqomini beruvchi guvohnoma ma'lum bir muddat uchun berilmaydi, bu ham ularni nazorat qilishni qiyinlashtiruvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Bu kabi muammolar, va global miqyosda savdoning rivojlanishi bilan uning xavfsizligiga bo'lgan talabning ortishi operatorlik institutini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga asosan takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (as amended), World Customs Organization, viewed 15 March 2016.
2. Alessandro Torello The Simplification of Customs Formalities: The Role of the Authorized Economic Operator (AEO) in Vietnam and in the EU. Published: September 10th, 2020. DOI: 10.5772/intechopen.93609
3. WCO “Safe Framework standarts”. 2021 edition.

4. Черненко Артем Сергеевич Рубрика “Уполномоченный экономический оператор в Евразийском экономическом союзе”. Спецвыпуск Опубликовано в Молодой учёный №13 (147) март 2017 г. Дата публикации: 05.04.2017.
5. Eksport/import xavfsizligini boshqarish bo'yicha mukammal kompaniyalarni sertifikatlash to'g'risida bildirishnoma (2021-yil. 3. 30.) (Bojxona bildirishnomasi № 2021-34, 2021. 3. 30. qisman tahrirdagi). Koreya bojxona xizmati (tekshiruv siyosati bo'limi), 042-481-7784
6. Authorised Economic Operator (AEO) [Electronic resource] // Taxation and Customs Union.
7. Regulations Governing the Certification and Management of the Authorized Economic Operators. Amended Date : 2020-10-23/Ministry of Finance
8. WTO “Trade facilitation agreement” 22.02.2017y.
9. WTO “Safe Framework of standards”. 2021 edition.
10. WCO “Compendium of authorized economic operator programmes”. 2020 edition.
11. <https://mag.wcoomd.org/magazine/wco-news-85/chinas-aeo-joint-incentive-programme/>
12. Muallif tomonidan Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlari statistik hisob-kitoblar orqali umlashtirilgan.